

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Степина В., Семигина Г. Новая философская энциклопедия. В 4-томах. Том 2. – Москва: Мысль, 2010. – С. 744.
2. Писаренко В.И. Проблема воспитания в современной педагогике // Известия ЮФУ. Технические науки, 2013. – №7.
3. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. – Москва: Школьная пресса, 2002. – 576 с.
4. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Маънавият методологияси ва праксиологияси. 2-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2018. – Б. 456.
5. Фромм Э. Инсоннинг ҳозирги ҳолати // Жаҳон адабиёти, 2000. – №1.
6. Замонавий дарсликлар қандай бўлиши керак? // <https://www.uza.uz> (2020 йил 8 июль).
7. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли // Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат мафкура. Том 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 367 б.
8. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-иқтимоий ва иқтисодий истикболнинг асосий тамойиллари // Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Том 3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 3-54; Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Том 7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 132-154; Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Том 7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 84-102; Каримов И.А. Миллий истиклол мафкураси – халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Том 8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 489-508.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори // Халқ сўзи (2019 йил 4 май).
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистоннинг ишсизлик даражаси қанча?” // www.mehnat.uz (2020 йил 4 февраль).
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги фармойиши. // Халқ сўзи (2017, 13 январь).
12. Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатлари ва ҳуқуқларини таъминлаш – демократик жамият асосидир // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Ж. 2. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 512 б.
13. Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (аксиология). – Тошкент: Ўзбекистон Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. – 85 б.
14. Морозов А.И. Молодежный возраст как правовая и криминологическая категория // Проблемы в российском законодательстве. Юридический журнал, 2012. – №3.
15. 2019 йилда Ўзбекистоннинг ишсизлик даражаси қанча? // www.mehnat.uz (2020 йил 4 февраль).
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги фармойиши. // Халқ сўзи (2017, 13 январь).
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистоннинг ишсизлик даражаси қанча?” // www.mehnat.uz (2020 йил 4 февраль).
18. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.



Xasanboy Abdusamatov,

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
habdusamatov@bk.ru

NIKOHDAN TASHQARI MUNOSABATLAR VA UNING PSIXOPROFILAKTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqola nikohdan tashqari munosabatlar oldini olishga qaratilgan. Maqolada jinsiy orientatsiyaning erta buzilishiga sabab bo'ladigan ijtimoiy-psixologik omillar ko'rsatilgan. Nikohdan tashqari munosabatlarni oldini olishning psixoprofilaktikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: nikoh, ajrim, jinsiy tarbiya, nikohdan tashqari munosabat, psixologik omillar.

Аннотация. Эта статья направлена на предотвращение внебрачных связей. В статье выявлены социально-психологические факторы, которые приводят к раннему нарушению сексуальной ориентации. Охвачена психопрофилактика внебрачных связей.

Ключевые слова: брак, развод, половое воспитание, внебрачные связи, психологические факторы.

Annotation. This article aims to prevent extramarital affairs. The article reveals socio-psychological factors that lead to early violation of sexual orientation. The psychoprophylaxis of extramarital affairs is covered.

Key words: marriage, divorce, sex education, extramarital affairs, psychological factors.

Kirish. Nikohdan tashqari munosabatlar muammosi, oilalar paydo bo'lganidan beri mavjud bo'lib, u har bir davrda turlicha talqinga ega bo'lgan bo'lsa-da, o'zining dolzarbligini va oila institutiga ta'sirini yo'qotgan emas. Bugungi kunda jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar soni tobora ko'payib borishi¹, er-xotinning bir-biriga moslasha olmasligi nikohning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Ayni vaqtda ushbu holatlarning oldini olish nafaqat psixologiya, balki tibbiyot, ijtimoiy bilimlar haqidagi fanlar doirasida o'rganiladigan soha hisoblanadi. Nikoh buzilishining asosiy sababi – er-xotinning bir-biriga moslasha olmasligi bugungi kunda juda kam o'rganilgan va adabiyotlarda deyarli yoritilmagan.

¹ Мавров Г.И. Инфекции, передающиеся половым путем: эпидемиологическая ситуация в Украине // Вопросы профилактики и лечения ВИЧ/СПИД заболеваний, передающихся половым путем и наркоманий: Матер. 2-й регион науч.-практ. конф. – Харьков, 2002. – С. 24-26.

Er-xotinning bir-biriga ishonmaslik fenomeni quyidagi ikki usulda o'rganilmoqda: avangard va an'anaviy. Birinchi usul tabiiy hodisa sifatida qaralib, u monogom oiladan guruh oilaga o'tish davrida yuzaga kelgan. Ikkinchi usulda olgan tarbiyasidagi xatolik natijasida qaralib, ikki tamonlama axloqiy me'yor sifatida ko'riladi. Har qanday holatda ham nikohdan tashqari munosabatlarning eng salbiy ta'siri – jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasallik. U nafaqat oilaning buzilishiga, balki nasl qoldirish funksiyasining yo'qolishiga, er-xotinlar sog'lig'ining yomonlashuviga, boshqa oila a'zolarining psixologik azoblanishiga olib keladi².

M.V.Moskalenko tomonidan jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar bilan kasallangan 90 nafar er va xotin o'rganilgan. Ular kompleks (klinik, patopsixologik, psixopatologiya) tekshirilgan. Unga

² Кришталь В.В., Григорян С.Р. Сексология. – Москва: Пер Се, 2002. – 879 с.

ko'ra, 69 nafar juftlik bu kasallikni yuqtirib olishiga ijtimoiy omillar sabab qilib ko'rsatilgan bo'lsa, 21 nafar juftlikda jinsiy munosabatlarning o'zini sabab qilib ko'rsatgan³.

Birinchi omilda, er va xotinning bir-biriga mos kelmaydigan shaxsiy xarakterlari, noto'g'ri munosabatlari, tez-tez bo'ladigan kelishmovchiliklar va ulardan chiqib ketish yo'lini bilmaslikda, deb hisoblaydi.

Ikkinchi holatda, er va xotin o'rtasidagi jinsiy bilim darajasining past ekanligi va mos kelmasligi, jinsiy munosabat haqida tasavvurlari noto'g'ri talqin qilinayotganligi natijasida oilada jinsiy munosabatning ibtidoiy va liberal turlari yuzaga keladi⁴.

Yuqoridagi ikki holat ham oila buzilishiga olib keladi va bunga sabab turmush o'rtog'ining axloqiy, psixologik, estetik munosabatlar darajasi past ekanligidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda nikohni asrash, jinsiy munosabatlarni o'rganish, uni psixoprofilaktika qilish tizimini ishlab chiqish, bu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganishga asos bo'la oladi. Psixologik tomondan bunday tizim hozirgacha yaratilgan emas.

Tibbiyot va seksologiyada mavjud bo'lgani kabi, birlamchi, ikkilamchi va uchunchi darajali profilaktikani amalga oshirish kerak⁵ [5]. **Birlamchi psixoprofilaktikaning** asosiy maqsadi – oila salomatligi, er-xotin munosabatlarini mustahkamlash va ular uchun qulay sharoit yaratish bilan birga psixologik, ijtimoiy, biologik omillarning salbiy ta'sirini oldini olish bo'yicha ma'lumotlar berish. Nikohdan tashqari jinsiy munosabatlar oila salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunda, nikohga moslashishni buzadigan quyidagi omillarni hisobga olish kerak bo'ladi: noto'g'ri umumiy va jinsiy tarbiya, jinsiy munosabatlar haqida yetarli darajada ma'lumotga ega emaslik, xarakterlarning mos kelmasligi, ziddiyatlarni konstruktiv hal qila olmaslik, nikohga tayyor bo'lmaslik, oila funksiyalari haqidagi

bilimlarning yetarli emasligi, noto'g'ri jinsiy motivatsiyaga ega ekanligi kabi sabablarni ko'rsatish mumkin. Oila nizolarini hal qilishning dastlabki bosqichi jinsiy munosabatlarning axloqiy-psixologik profilaktika choralari o'z ichiga oladi. Yuqoridagi omillarni aniqlash va bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, psixologlar, shifokorlar, o'qituvchilar, din ulamolari, genikologlar, sotsiologlar, seksologlar, urologlar jalb qilinishi kerak bo'ladi.

Ikkilamchi psixoprofilaktika er-xotinlar o'rtasidagi oldindan mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash va bartaraf etishdan iborat bo'lib, uchunchi darajali holatda esa uning takrorlanishini oldini olish, nikohdan tashqari munosabatlarni yuzaga keltiruvchi sabablarni bartaraf etish, nizoli oilalarning paydo bo'lishi va nikohning buzilishi kabi ijtimoiy-psixologik oqibatlarni oldini olishga qaratilgan. Yuqoridagi barcha psixoprofilaktika choralari asosiy prinsipi – izchillik, kompleks yondashuv, differensial va umumiylikdan o'ziga xoslikka yo'nalgan bo'lishi.

Psixoprofilaktika tizimi ijtimoiy, psixologik, biologik holatlarning ta'sirini doimiy ravishda uzviy bog'lash va ular o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashdan iborat. Shu bilan birga, quyidagi uchta komponentni unutish kerak emas:

- jinsiy hayot shakllanishini buzadigan holatlarning oldini olish;
- turmush o'rtoqlarning shaxslararo munosabatlari buzilishi yoki mustahkam bo'lishini muntazam kuzatib borish;
- oila funksiyasining bajarilish yoki buzilishini tahlil qilish.

Yuqoridagi komponentlarning ikki tarkibiy qismi mavjud. Ular, *ma'lumot berish* va *rejalashtiriladigan ishlarni amalga oshirishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish*. Ushbu tizim bir nechta bosqichlardan iborat. Ular:

Birinchi bosqich bola hayotining dastlabki yillaridan boshlanib, unga jinsiy munosabatlar to'g'risidagi tushunchani axloqiy qoidalar asosida tushuntirish. Ushbu normalarni o'zlashtirish va jinsiy orientatsiyani to'g'ri tushuntirish kerak bo'ladi. Shaxsdagi jinsiy tarbiyani to'g'ri shakllantirishda psixotraumtizatsiyani oldini olish muhim hisoblanadi. Shaxsning psixoseksual jarohati kelajakda jinsiy funksioning buzilishi, oilada jinsiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ya olmaslik va turli asab kasalliklarining rivojlanishiga

³ Москаленко М.В. Внебрачный секс и его психопрофилактика. Сексология. 2003.

⁴ Афонин А.В. Сексуальное поведение больных сифилисом // Социальные и клинические проблемы сексологии и сексопатологии. – Москва, 2003. – С. 15.

⁵ Айриянц И.Р. Характеристика пациентов, страдающих оргазмическим расстройством // Социальные и клинические проблемы сексологии и сексопатологии. – Москва, 2003. – С. 6–8.

olib keladi. Psixoseksual travmaning oldini olish uchun bolada jinsiy qo'zg'alishlarni keltirib chiqaradigan har qanday narsadan saqlanish kerak.

Imkon qadar bolani yoshligidan boshlab, yoshi katta insonlar bilan, ota-onalari bilan birga yotishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ushbu holatda bola, siz anglamagan holda, jinsiy munosabatga guvoh bo'lib qolishining oldini olgan bo'lasiz. Buning oldi olinmasa, bolaga jiddiy psixologik jarohat yetkazadi.

Bolalardagi psixotravmaga, asosan, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi, ajrashishi kabi omillar ham sabab bo'ladi. Bola ota-ona o'rtasidagi janjalning ishtirokchisi bo'lishi kerak emas. Bolaga turli qiyin vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini o'rgatish, unda stressli vaziyatlarga yetarli javob bera oladigan qobiliyatni tarbiyalash kerak.

Psixoprofilaktikaning ushbu birinchi bosqichi bolaga an'anaviy ta'lim berishdan tashqari, uning xarakteriga salbiy ta'sir qiladigan ijtimoiy-psixologik omillarga qarshi tura oladigan psixologik himoya mexanizmi yaratishga yordam beradi. Ular bilan oilaga psixologik xizmat ko'rsatish orqali, shuningdek psixologik treninglardan foydalangan holda ishlash kerak.

O'smirlik davri jinsiy tarbiyada eng muhim hisoblanib, u zamonaviy tarbiya nazariyalariga muvofiq ravishda jinsiy hayot psixogigiyenasi, jinsiy madaniyat, qarama-qarshi jins vakillari o'rtasidagi munosabatlar madaniyati, o'zining jinsiy munosabatlariga javobgarligi to'g'risidagi fikrlarni shakllantirishdan iborat. Bugungi kunda har bir yosh oila qurish jarayonida hech qachon yomon niyatlar bilan oila qurmaydi. Ming yillik qadriyatlarimiz negizida shakllangan "uvali-juvali bo'lish", "borgon joyida toshdek qotish", "o'z uying – o'lan to'shaging" kabi o'zbek oilasiga xos bo'lgan duo va qarashlarimiz bugungi kunda ham o'z qadriyatini yo'qotgan emas. Ushbu qarash va qadriyatlarga ta'sir qiladigan omillar ko'payib bormoqda. Yoshlar oilaga to'g'ri niyat va orzular bilan qadam tashlar ekan, albatta, ularga jinsiy hayot gigiyenasi to'g'risida ma'lumot berish darkor. Ma'lumot sifatida shuni aytish kerakki, jinsiy funksiyalarning fiziologik asoslari, erkak va ayol o'rtasidagi jinsiy munosabatlar, jinsiy motivatsiya, jinsiy aloqa psixologiyasi va fiziologiyasi haqida bo'lishi kerak. Jinsiy tarbiyani axloqiy tamoyillar asosida berish, muhabbat bosqchilarini to'g'ri

tushuntirish va unda jinsiy munosabat uchun javobgarlik hissini shakllantirish kerak.

Ikkinchi bosqich oilada er va xotin moslashuvchanligining psixoprofilaktikasi bo'lib, yoshlarda oilaga xos bo'lgan turg'un xususiyatlar va xarakterlarni shakllantirishdan iborat. Bu xususiyatlar shaxsda ideal va real maqsadlarni farqlash, ularga erishish yo'lida xatti-harakatlarni to'g'ri tashkil qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Bu bosqichda moslashuvchanlik, o'zini hurmat qilish, reallikka yaqin bo'lmagan intilishlar va o'ziga yuqori baho berish kuzatiladi. Moslasha olmaslikning bu bosqichida shaxsdagi xarakter xususiyatlarini noto'g'ri shakllanib qolishining oldini olish, turli ijtimoiy jarohatlar, stressli vaziyatlarga qarshi immunitet hosil qilish kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Oilada barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarning bir qismida er va xotin munosabatlarining noto'g'ri bo'lishi natijasida nikohdan tashqari munosabatlarni psixoprofilaktika qilishni taqozo qiladi.

Shaxsni gormonal tarbiyalash, er va xotin munosabatlari muvofiqligini ta'minlashning birlamchi bosqichi hisoblanadi. Yoshlarga er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni **gormonal va gormonal bo'lmagan** holatda qanday bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish darkor.

Uchinchi bosqich. Nikoh buzilishining psixoprofilaktikasi bosqichida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan birga oilali insonlar bilan ishlanadi. Endi oila ostonasiga kelgan yosh oilalardagi nizoli vaziyatlar, er-xotin o'rtasidagi munosabatlarning buzilishini oldini olish hamda oila gigiyenasi asoslari bilan tanishtirishdan iborat. Oilaviy hayot siklining buzilishi er yoki xotinning gormonal xarakterining buzilishi natijasida yuz beradi. Oila funksiyalarining buzilishi, o'z navbatida, er va xotinning muayyan ehtiyojlarini qondirilmaganligi bilan bog'liq hisoblanadi. Bu bosqichda oila qurmoqchi bo'lgan yoshlar bilan quyidagi mavzularda maxsus seminar treninglar o'tkazilishi kerak bo'ladi: *er-xotin o'rtasidagi muloqot madaniyati, oila funksiyalarining buzilishi natijasida yuzaga keladigan oilaviy nizolar, nizolarning salbiy oqibatlari, nizolarni konstruktiv hal qilish yo'llari haqida tushunchalar berish darkor.*

Oilaviy hayotda muqarrar ravishda yuzaga keladigan nizolarni hal qilishni to'g'ri va

samarali usullaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar o'tkazish kerak bo'ladi. Shu bilan birga, oilada er va xotin o'rtasidagi jinsiy faoliyat psixogigiyenasi haqida yosh oilalarga tushuntirish maqsadga muvofiq. Normal jinsiy hayot uchun to'g'ri mehnat va dam olish rejimining muhim ekanligi yoki unga salbiy ta'sir qiladigan omillar to'g'risida ma'lumotlarni yetkazish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy tarbiya nuqtayi nazaridan jinsiy munosabatlarning gender xususiyatlarini yoshlarga tushuntirish, ularning ertangi oilaviy munosabatlarini mustahkam bo'lishi uchun zamin hisoblanadi. Ayolning jinsiy munosabatlari turmush o'rtog'ining shaxsiyati bilan chambarchas bo'g'liq bo'lib, u uchun ma'aviy hayot qismi hisoblanadi. Ayolning turmush o'rtog'iga nisbatan bo'lgan muhabbati jinsiy munosabatlarni rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. Erkaklarda bunday xususiyatning kamligi o'ziga nisbatan psixoseksual qoniqishni kamaytirib yuboradi. Bu o'z-o'zidan nikohdan tashqari munosabatga kirishishga yoki yashirin ravishda qonuniy nikohdan o'tmasdan yashayotgan oilalar sonining ortishiga olib keladi. Ayol uchun erkakning xulq-atvori, munosabatlarning barqarorligi va hissiyotlarning nozikligi katta ahamiyatga ega.

Oilada ayol uchun erkakning fiziologik ko'rinishi va jismoniy xususiyatlari jinsiy munosabatlar uchun stimul emas. Erkaklarga nisbatan ayollarda jinsiy munosabatlarga intilish kuchsizroq bo'ladi. Shu sababli ayollardagi jinsiy hayotning

faolligi aniq va uzoq davom etadi. Erkak va ayollar erogen nuqtalarining joylashishida farq mavjud. Erkaklarda erogen zona, asosan, jinsiy sohasida, ayollarda esa tananing ko'p qismlarida joylashgan bo'ladi.

Ayollarning intellekt faoliyati uning kasbi, ta'lim darajasi va ijtimoiy omillarga bog'liq. Bu esa ularning libido va orgazmiga ijobiy ta'sir qiladi, erkaklarda esa bu unchalik ta'sir qilmaydi. Ilmiy adabiyotlarda kuzatilishicha, gumanitar kasblar va uy bekalarida libido va orgazm faolligi kamroq, jismoniy mehnat bilan shug'ullanadigan ayollarda esa ularning oraliq faolligi ijobiy bo'ladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, yuqoridagi ishlarni amalga oshirish, takomillashtirish va faolligini oshirish uchun amaliy muassasalar sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Har bir **qishloq vrachlik punktlarida** "oilaviy tibbiy-psixologik maslahat" bo'limini tashkil etish, poliklinikalarda psixoterapiya xonalari, **mahallalarda** esa oila va nikoh uchun psixologik markazlar, oilaga psixologik xizmat ko'rsatish uchun **"ishonch telefoni"** ni tashkil qilish muhim.

Bundan ko'zlangan maqsad – oilada shaxslararo munosabatlarning buzilishini oldini olish, mustahkam oilaviy munosabatlarni shakllantirish, yosh oilalarda shaxslararo munosabatlarni hamda jinsiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Ushbu tizimning ishga tushirilishi, nikoh munosabatlarini mustahkamlash, nikohdan tashqari munosabatlarning chastotasini va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar sonini kamaytirishga yordam berishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мавров Г.И. Инфекции, передающиеся половым путем: эпидемиологическая ситуация в Украине // Вопросы профилактики и лечения ВИЧ/СПИД заболеваний, передающихся половым путем, и наркоманий: Матер. 2-й регион науч.-практ. конф. – Харьков, 2002. – С. 24-26.
2. Кришталь В.В., Григорян С.Р. Сексология. – Москва: Per Se, 2002. – 879 с.
3. Москаленко М.В. Внебрачный секс и его психопрофилактика. Сексология. 2003.
4. Афонин А.В. Сексуальное поведение больных сифилисом // Социальные и клинические проблемы сексологии и сексопатологии. – Москва, 2003. – С. 15.
5. Айриянц И.Р. Характеристика пациентов, страдающих оргазмическим расстройством // Социальные и клинические проблемы сексологии и сексопатологии. – Москва, 2003. – С. 6–8.